

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM BERISHNING SAMARALI TASHKIL ETISH YO'LLARI

Rahimberdiyeva Yulduzzon Jahongir qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti.

Ta'lismuassasalari boshqaruvi yo'nalishi 2-kurs magstranti.

Email: [yuldurahimberdiyeva98@gmail.co](mailto:yuldurahimberdiyeva98@gmail.co)

Tel; +998998741798

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10507775>

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lismuassasalarida ta'limga berishda qanday samarali usullarni targ'ib etsak bolalarda ilm olish va kelajakda buyuk allomalrimizga xos jihatlarni uyg'ota olishlik mumkinligi va zamon bilan hamohang texnologiya orqali bolalar dunyoqarashini kengaytirish va kitob o'qish orqali bola ilmini poydevorini mustahkamlash va bola tartib intizom samaradorligini ta'limga berish asnosida rivojlantirish yo'llari yoritilgan. Bolalar ta'limga olishlarini samarili tashkil etishda noodatiy yo'llarni ta'limga muassasalarida targ'ib etishdagi foydali va zararli jihatlari haqida mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'limga, vizualizatsiya, hamkorlikda o'rghanish, so'rovga asoslangan ko'rsatma, differentsiatsiya, xonadagi texnologiya, nuriy programma, ta'limga to'g'risidagi qonun.

## EFFECTIVE WAYS OF ORGANIZING EDUCATION IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

**Abstract.** In the article, if we promote effective methods of education in preschool educational institutions, it is possible to learn in children and to awaken aspects characteristic of our great scholars in the future, and to expand children's worldview through modern technology and strengthen the foundation of children's science through reading books. and the ways to develop the effectiveness of child discipline during education are highlighted. Considerations are given about the beneficial and harmful aspects of promoting unusual ways in educational institutions in the effective organization of children's education.

**Keywords:** preschool, visualization, cooperative learning, inquiry-based instruction, differentiation, technology in the room, curriculum, education law.

## ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

**Аннотация.** В статье, если продвигать эффективные методы обучения в дошкольных образовательных учреждениях, можно обучаться у детей и пробуждать в будущем черты наших великих ученых, а также расширять мировоззрение детей посредством современных технологий и детских наук через чтение книг. Освещены пути укрепления фундамента и развития эффективности детской дисциплины в процессе обучения. Приводятся соображения о пользе и вреде пропаганды в образовательных учреждениях нестандартных способов эффективной организации образования детей.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, визуализация, совместное обучение, исследовательское обучение, дифференциация, технология в классе, учебная программа, право образования.

Maktabgacha ta'lim - uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan. Ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatadiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'ngi 20yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda Respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasida Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan, maktabgacha ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi 5198-Farmoniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Shu bois eng yaxshi xalqaro tajribalar asosida tizimdagi dasturiy va o'quv metodik ta'minotni takomillashtirish maqsadida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish vazifasi yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Bolalarni boshlang'ish ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risidag"gi 999-sonli qaroriga asosan O'zbekistonda isti'qomat qiluvchi 6-7 yoshli bolalarni maktabga to'lovsiz majburiy bir yillik tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi. 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida "Ilm yo'li" dasturini ishlab chiqish hamda uni tasdiqlash zarurati paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining tashabbusi bilan 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lim tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida "Ilm yo'li" variative dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari, "Kadrlar tayyorash bo'yicha Milliy dastur", maktabgacha ta'limni rivojlantirish Konsepsiysi asosida ishlab chiqildi.

Dastur irodaviy bo'y sunishdan va mulkchilik shakillaridan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi hududida joshlashgan barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilishi mumkin.

Bolalarni maktabga majburiy bir yillik tayyorlov guruhlariga ega bo'lган umumiyl hamda ixtisoslashtirilgan tipidagi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida;  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimi uchun kadlar tayyorlashni amalga oshiradigan o'rta-maxsus va oliy ta'lim muassasalarida:

Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun pedagog-kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonini amalga oshiruvchi muassasalarda.  
Shuningdek, har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti, shu jumladan, maktabgacha ta'limning muqobil shakillari hududiy, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlardan kelib chiqib, o'z muqobil shakillarini ishlab chiqishi mumkin.

Bu borada maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim berishning samarali tashkil etishning yo'llarini to'g'ri tashkil eta bilishlik kerak. Va bu borada muhitni alohida e'tiborga olgan holda ta'lim tizimini yo'lga qo'ygan maqul. Ikki oy yoki yigirma yil ta'lim berganiningizdan qat'i nazar, tarbiyalanuvchilaringiz bilan qaysi strategiyalar eng yaxshi ishlanishini bilish qiyin bo'lishi mumkin. Tarbiyachi sifatida "hamma uchun bir xil" yechim mavjud emas, shuning uchun ba'zi usullarni ta'lim sifatini oshirishi mumkin bo'lgan holatlarini ko'rib chiqamiz.

Vizualizatsiya-akademik tushunchalarni vizual va amaliy o'quv tajribalari bilan hayotga tadbiq eting, bu sizning tarbiyalanuvchilaringizga ta'lim muassasasining real hayotda qanday qo'llanilishini tushinishga yordam beradi. Masalan, interaktiv doskadan fotosuratlar, avdiokliplar va videofilmlarni nomoyish qilishda foydalanish, shuningdek, bolalarni sinf tajribalari va mahalliy ekskursiyalar bilan o'rindiqlaridan turishga undash kiradi.

Hamkorlikda o'rganish kichik guruh yoki butun guruh faoliyatini targ'ib qilish orqali aralash qobilyatlari bolalarni birgalikda ishlashga undash. O'z fikrlarini og'zaki ifoda etish va boshqalarga javob berish orqali bolalar o'zlariga bo'lgan ishonchni rivojlantiradi, shuningdek, hayot davomida muhim bo'lgan muloqat va tanqidiy fikrlash qobilyatlarini oshiradi. Matematik jumboqlarni yechish, turli tajribalar o'tkizish va qisqa dramatik eskizlarni ijro etish-bu kooperativ ta'limni sinf darslariga qanday kiritish mumkinligiga bir nechta misol.

So'rovga asoslangan ko'rsatma bolalarni o'zlari uchun fikr yuritishga va va mustaqil o'rganishga intilishga undovchi o'ylantiruvchi savollar yaratting.

Differentsiatsiya hech kim ortda qolmasligi uchun bolalarni qobilyatiga qarab vazifalarni taqsimlash orqali o'qitishni farqlang.

Sinifdagi texnologiya tehnologiyani o'qitishga kiritish bu sizning bolajonlar faol jalg qilishning ajoyib usuli, ayniqsa raqamlari axborot vositalari 21asr bolalarini o'rab turgan kabi.

Va nuriy programmasida bolalarni bo'sh xonalarga olib kirishadi. U yerda hamma bolalar o'zlari uchun muhim va qiziqishlaridan kelib chiqib o'z mahoratlarini nomoyon etishadi, bu esa bolada erkinlik ruhini tarbiyalaydi. Va bu borada vaqt taqsimoti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi joylashgan aholi talablaridan kelib chiqib, davlat maktabgacha ta'lim muassasida yoki uning alohida guruhlarda 6kunlik ish haftasi ham joriy etilishi mumkin. Misol tariqasida, quydagi ish tartibi joriy etiladi: 12soatlik; 10,5 soatlik; 9 soatlik; 4soatlik.

Biz maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim berishni samarali tashkil etish orqali bola ongini, ma'naviyatini, aql idrok va hayotga qo'yayotgan qadamlarini to'g'ri yo'naltira olamiz.

Bola ta'lim jarayoni murakkab jarayon hisoblanib, unga shunchaki yondashish mumkin emas. Bola 2-6 yosh oralig'ida hayoti uchun muhim bilim ko'nikma, tushunchalarni egallaydi.

Va bu borada ta'lim tizimini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik faktlar shuni ko'rsatadiki dunyodagi eng aqli inson 2yoshida 5tilda gaplashgan, 4yoshida universitetga kirgan va 7 yoshida esa NASA'da ishslash uchun taklifnomalarini olgan.

## REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2017-yil 30-sentyabr.  
"101 Ta'lim bo'yicha qo'llanma" ([https://reviewing.co.uk/\\_links.htm#education](https://reviewing.co.uk/_links.htm#education))
2. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. (Metodik qo'llanma-2020)
3. "Ilm yo'li" Variativ dastur-2020.